

DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK LOYIHALARI MOLIYAVIY SAMARADORLIGI TAHLILI.

Bank moliya akademiyasining magistranti

Bozorov Shuhrat O'ktamovich

Annotatsiya: Hozirgi vaqtga kelib davlat-xususiy sheriklik munosabatlari, ular hajmini oshirish masalasi milliy va shuningdek, xalqaro darajada tadqiqotchilar va iqtisodchilarning e'tiboridagi masalalardan biridir. Xususiy sektorning davlat-xususiy sheriklik munosabatlaridagi ishtiroki nisbatan pastligi bunga ma'lum darajada sabab bo'lmoqda. Mamlakat infrastuzilmasini rivojlantirishga oid loyihalarda xususiy investorlarining qiziqish darajasini pastligi, investitsiyalarining katta ulushi davlat xissasiga to'g'ri kelayotganligi bu sohada olib borilishi lozim bo'lgan ilmiy tadqiqotlar dolzarbligini ifodalaydi. Ushbu maqolada davlat-xususiy sherikchilik asosida loyihalarning amalga oshirilishi mamlakat ijtimoiy va iqtisodiy holatini yaxshilanishiga, davlat iqtisodiyotning rivojlanishida DXSH loyihalarining amalga oshirilishi katta ahamiyat kasb etadi. Yurtimizda endi kirib kelayotgan yangi soha ya'ni davlat-xususiy sherikchilik asosida olib borilayotgan biznesning rivojlanish bosqichlari xususan O'zbekistonda (Navoiy viloyati misolida) DXSH loyihalarini rivojlantirish istiqbollari, ushbu sohada amalga oshirilayotgan istiqbolli loyihalarni moliyalashtirilishi, tadbirkoplik sub'ektlariga yaratilgan imkoniyatlar, berilgan imtiyozlarni jopiy etishda xorijiy davlatlarning tajribalari o'rganilib, ularni hayotga joriy etish natijasida yangi natijalarga erishish bo'yicha takliflar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: milliy iqtisodiyot, raqobatdoshlik, kapital jalb qilish, Davlat-xususiy sherikligi, kapital bahosining o'rtacha tortilgan qiymati, ichki daromadlilik me'yori, sof joriy qiymat

Bozor iqtisodiyoti sharoitida umum davlat ahamiyatiga ega bo'lgan yirik ijtimoiy-iqtisodiy loyihalarni amalga oshirishda muvaffaqiyat qozonish mumkin, agar davlat va biznesning kuch-qudratini birlashtirish evaziga umumiy samarani yuzaga chiqara olinsa.

Chunki, davlatning iqtisodiyotdagi ulushi tobora qisqarib borgan holda, biznesning ulushi teng ravishda oshib bormoqda. Davlat budjeti barcha ijtimoiy masalalarni yechish uchun yetarli mablagʻlarni ajratishga qurbi yetmasligidan biznesning moliyaviy koʻmaki zarur boʻlib qoladi. Shu sababli Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF4947-sonli «Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha Harakatlar strategiyasi toʻgʻrisida»gi farmoniga koʻra: Oʻzbekistonni 2017-2021 yillarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish boʻyicha Harakatlar strategiyasining M.B.Jerard esa DXSh – bu xususiy kapitalni oʻziga jalb qilishni va baʼzan esa ijtimoiy xizmatlarning sifatini oshirish yoki davlat aktivlarini boshqarish uchun davlat kapitalini ham jalb qilishni uygʻunlashtiradi deb taʼkidlaydi. Rivojlangan bozor iqtisodiyotiga ega mamlakatlar – jahon iqtisodiyotining asosiy subektlaridan biri hisoblanadi. Ushbu mamlakatlar «rivojlangan» yoki «sanoat jihatdan taraqqiy etgan» mamlakatlar deb ataladi. Sanoat jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlarga xos boʻlgan asosiy xususiyatlardan biri – daromadlarning aholi qatlamlari oʻrtasida nisbatan tekis taqsimlanishi va mamlakat hududining bir tekis oʻzlashtirilishi hisoblanadi. Davlat-xususiy sheriklik loyihalarini budjet ssudasi hisobiga moliyalashtirish Budjet kodeksi 140-moddasiga muvofiq amalga oshiriladi. DXSh loyihalarini amalga oshirish uchun Oʻzbekiston konsolidatsiyalashgan budjeti hisobidan quyidagi toʻlovlar moliyalashtiriladi:

- DXSh toʻgʻrisidagi bitimga muvofiq DXSh obektini qurish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiya qilish, taʼmirlash va xizmat koʻrsatish xarajatlari uchun toʻlovlar;
- DXSh loyihalarini amalga oshirish doirasida xalqaro moliya institutlari, xalqaro va mahalliy konsalting hamda loyihalashtirish tashkilotlari bilan konsalting va auditorlik xizmatlarini koʻrsatish xarajatlari uchun toʻlovlar;
- DXSh toʻgʻrisidagi bitimga muvofiq davlat-xususiy sheriklik obektidan foydalanish (uni ekspluatatsiya qilish) va (yoki) ushbu obektga xizmat koʻrsatish davrida undan erkin foydalanilishini taʼminlaganlik uchun davlat sherigi tomonidan amalga oshiriladigan toʻlovlar.

Oʻzbekiston konsolidatsiyalashgan budjeti hisobidan DXSh loyihalari uchun rejalashtirilgan mablagʻlari - Moliya vazirligi va (yoki) hududiy moliya organlari

tomonidan to‘g‘ridan to‘g‘ri, shuningdek davlat sherigi va (yoki) davlat sherigi tomonidan vakolat bergan hamda uning tuzilmasiga kiruvchi quyi tashkilotlar orqali ajratiladi. (4.2 jadval)

2021-2024 yil yillar davomida DXSh loyihalari doirasida davlat byudjetidan ajratiladigan mablag‘lar to‘g‘risida

MA'LUMOT

Sohalar nomi		Byudjetdan ajratiladigan (reja)	Byudjetdan to‘langan (fakt)
Davlat	byudjeti	mablag‘lari 10 475,7 mlrd.so‘m	8 093,4 mlrd.so‘m
<i>Ta‘lim sohasi</i>		<i>862,5 mlrd.so‘m</i>	<i>629,8 mlrd.so‘m</i>
<i>Ijtimoiy soha ob‘ektlarining isitish tizimini</i>		<i>1 838,3 mlrd.so‘m</i>	<i>1 444,8 mlrd.so‘m</i>
<i>Sog‘liqni saqlash sohasi</i>		<i>185,0 mlrd.so‘m</i>	<i>142,0 mlrd.so‘m</i>
<i>Suv xo‘jaligi sohasi</i>		<i>1 160,4 mlrd.so‘m</i>	<i>948,8 mlrd.so‘m</i>
<i>Kommunal soha</i>		<i>6 429,5 mlrd.so‘m</i>	<i>4 928,0 mlrd.so‘m</i>

Manba: Davlat Xususiy Sherikchilik loyihalarini amalga oshirish departamentining ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi. Prezident 2024–2030-yillarda davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi qarorni imzoladi. Loyihalar orasida maktablar, shifoxonalar qurish, aeroportlarni modernizatsiya qilish va ularni boshqaruvga o‘tkazish, ichimlik suvi ta‘minoti, kanalizatsiya tizimini yaxshilash va boshqalar bor. Shavkat Mirziyoyev 30-avgust kuni 2024–2030-yillarda davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi qarorni imzoladi. Hujjat yo‘l, energetika, ta‘lim, transport, kommunal xo‘jalik, suv, ekologiya va boshqa sohalardagi DXSH loyihalarini o‘z ichiga oladi. 2024–2026-yillarda jami 11,65 milliard dollarlik 17 ta ustuvor loyihani amalga oshirish rejalashtirilmoqda. Ular orasida qariyb 97 million dollarga 14 ming o‘rinli 13 ta maktabni qurish va jihozlash ham bor. Loyiha Osiyo taraqqiyot banki bilan hamkorlikda Toshkent shahri va viloyatida amalga

oshiriladi. TENDERNING ikkinchi bosqichi joriy yilning sentabr oyida e'lon qilinadi, 2025-yilning iyuniga qadar esa g'olib aniqlanishi va u bilan DXSH shartnomasi tuzilishi kerak.

Bundan tashqari, xususiy tadbirkorlar bilan birgalikda qariyb 570 million dollarga 66 ming o'rinli 100 ta maktab qurish va jihozlash kutilmoqda. Potensial hamkorlar bilan muzokaralar dekabrgacha o'tkazilishi, loyiha konsepsiyasi 2025-yilning iyun oyida ishlab chiqilishi va tasdiqlanishi, avgust oyida hamkor tanlanishi, 2026-yilning fevralida esa DXSH kelishuvi imzolanishi kerak. Xalqaro moliya korporatsiyasi ko'magida Farg'ona viloyatida 800 o'ringa mo'ljallangan ko'p tarmoqli klinika qurish rejalashtirilgan. Loyiha taxminiy qiymati 306 million dollarga baholanmoqda. Loyiha konsepsiyasini sentabr oyida ishlab chiqish, tender esa 2025-yil fevral oyida boshlanishi rejalashtirilgan. Kelgusi yil oxiriga qadar g'olib e'lon qilinishi va u bilan DXSH shartnomasi tuzilishi kerak. Urganch aeroportini modernizatsiya qilish va ishonchli boshqaruvga o'tkazish rejalashtirilgan. Loyiha qiymati 181 million dollarga baholanmoqda. 2025-yilning iyunigacha tender g'olibi e'lon qilinishi va u bilan DXSH shartnomasi tuzilishi kerak. Yangi Toshkent aeroportini qurish va uni ishonchli boshqaruvga o'tkazish rejalashtirilmoqda. Loyiha qiymati 1,5 milliard dollarga baholanmoqda. 2025-yilning oktabrigacha xususiy sherikni aniqlash, 2026-yil oxirigacha esa DXSH shartnomasini imzolash rejalashtirilgan. O'tgan yilning may oyida Singapurning Changi Airports International kompaniyasi poytaxtdagi mavjud aeroport faoliyatini optimallashtirish bo'yicha konsultatsiya berishi, shuningdek, yangi aeroport qurilishining texnik-iqtisodiy asoslarini ishlab chiqishga ko'maklashishi xabar qilingan edi. Kelgusi yilda Namangan, Andijon va Buxoro aeroportlarini ham boshqaruvga topshirish va modernizatsiya qilish rejalashtirilgan. Osiyo taraqqiyot banki ko'magida Namangan shahridagi kanalizatsiya inshootlarini modernizatsiya qilish rejalashtirilgan. Loyiha qiymati 96 million dollarga baholanmoqda. Qurilish ishlari 2025-yilning aprelida boshlanib, 2027-yilning may oyida yakunlanishi kutilmoqda. Hozirgi kunda davlat infratuzilmasini uzoq muddatli moliyalashtirish maqsadida xususiy kompaniyalarni keng ko'lamda jalb qilishda davlat xususiy sheriklik (DXSH) ob'ektlar mexanizmlardan foydalanadi. Jahonda hozirgi kunda DXSH faoliyati keng tarqalgan bo'lib har-bir mamlakat uni qo'llanish uslubi va sahaları turli xildir. davlat uchun ahamiyatga ega

bo'lgan mamlakat barqaror rivojlanishiga hissa qo'shadigan munosabatlarni amalga oshirishda rivolangan davlatlar tajribasidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

4.3 jadval

Sohalar kesimida DXSh tamoyillari asosida amalga oshirilgan loyihalar to'g'risida MA'LUMOT

01.09.2024 yil holatiga

Ko'rsatkichlar	
Davlat-xususiy sheriklik loyihalari soni, shu jumladan:	1 039 ta
<i>1 mln.AQSh dollarigacha</i>	<i>818 ta</i>
<i>1 mln.AQSh dollaridan ortiq</i>	<i>221 ta</i>
Loyihalarning umumiy qiymati, shu jumladan	21 540,9 mln.\$
<i>Energetika sohasi</i>	<i>19 318,9 mln.\$</i>
<i>Kommunal soha</i>	<i>1 499,7 mln.\$</i>
<i>Ta'lim sohasi</i>	<i>226,1 mln.\$</i>
<i>Ekologiya va atrof-muhitni muxofaza qilish sohasi</i>	<i>123,9 mln.\$</i>
<i>Ijtimoiy soha ob'ektlari isitish tizimi modernizatsiyasi</i>	<i>110,4 mln.\$</i>
<i>Transport sohasi</i>	<i>94,2 mln.\$</i>
<i>Sog'liqni saqlash sohasi</i>	<i>55,9 mln.\$</i>
<i>Suv xo'jaligi sohasi</i>	<i>36,6 mln.\$</i>
<i>Soliq sohasi</i>	<i>20,3 mln.\$</i>
<i>Madaniyat sohasi</i>	<i>18,9 mln.\$</i>
<i>Agrosanoat</i>	<i>13,1 mln.\$</i>
<i>Qurilish sohasi</i>	<i>10,0 mln.\$</i>
<i>Huquqni muxofaza qilish sohasi</i>	<i>9,0 mln.\$</i>
<i>Yoshlar siyosati va sport sohasi</i>	<i>3,4 mln.\$</i>
<i>Hunarmandchilik sohasi</i>	<i>0,4 mln.\$</i>
<i>Bandlik va mehnat munosabatlari</i>	<i>0,1 mln.\$</i>

Manba: Davlat Xususiy Sherikchilik loyihalarini amalga oshirish departamentining ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi. Yana shuni ham alohida takidlab o'tish kerakki Davlat-xususiy sheriklik asosida energetika, transport, sog'liqni saqlash, ta'lim, ekologiya, kommunal xizmatlar, suv xo'jaligi va boshqa sohalarga 14 mlrd AQSh dollari investitsiyalarni jalb etish ko'zda tutilgan. DXSH

loyihalari davlat va xususiy sektor o'rtasidagi samarali hamkorlikni ta'minlash infratuzilmani rivojlantirish va davlat xizmatlari sifatini oshirishga ko'maklashadi. Mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish agentligi tomonidan respublikaning mas'ul vazirlik va idoralar bilan birgalikda 2019-2021 yillar va 2022 yil yanvar – avgust oylari davomida umumiy qiymati 12,37 milliard dollardan ortiq bo'lgan jami 393 ta davlat-xususiy sheriklik loyihalari bo'yicha ishlar olib borildi. Energetika sohasida 26 ta, kommunal xizmatlar sohasida 3 ta, sog'liqni saqlash sohasida 48 ta, suv xo'jaligi sohasida 133 ta, ekologiya sohasida 69 ta, ta'lim sohasida 67 ta, hunarmandchilik sanoati sohasida 13 ta, madaniyat sohasida 26 ta, transport hamda bandlik va mehnat munosabatlari sohalarida 2 tadan hamda axborot texnologiyalari, soliq, veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish va huquqni muhofaza qilish sohalarida 1 tadan loyiha shular jumlasidandir.

4.4 jadval

Sohalar kesimida 2024 yil 1 sentyabr holatiga imzolangan va amalda bo'lgan DXSh loyihalari to'g'risida

MA'LUMOT 01.09.2024 yil holatiga

Ko'rsatkichlar			Loyihalar qiymati	Loyihalar soni
Davlat-xususiy	sheriklik	loyihalari,	355,8 mln.\$	69 ta
<i>Energetika sohasi</i>			<i>262,7 mln.\$</i>	<i>1 ta</i>
<i>Ta'lim sohasi</i>			<i>85,2 mln.\$</i>	<i>44 ta</i>
<i>Madaniyat sohasi</i>			<i>4,7 mln.\$</i>	<i>9 ta</i>
<i>Yoshlar siyosati va sport sohasi</i>			<i>1,6 mln.\$</i>	<i>3 ta</i>
<i>Huquqni muxofaza qilish sohasi</i>			<i>1,0 mln.\$</i>	<i>1 ta</i>
<i>Suv xo'jaligi sohasi</i>			<i>0,4 mln.\$</i>	<i>6 ta</i>
<i>Agrosanoat</i>			<i>0,05 mln.\$</i>	<i>4 ta</i>
<i>Bandlik sohasi</i>			<i>0,1 mln.\$</i>	<i>1 ta</i>

Manba: Davlat Xususiy Sherikchilik loyihalarini amalga oshirish departamentining ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi. Yuqorida berilgan ma'lumotlarga ko'ra, davlat-xususiy sheriklik loyihalari bo'yicha ko'rsatkichlar ya'ni jami davlat-

xususiy sheriklik loyihalar qiymati bo'yicha 355,8 mln \$ va soni bo'yicha 69 ta, sohalar bo'yicha taqsimlanganda Energetika sohasida 1 ta 262,7 mln. \$, ta'limda 44 ta 85,2 mln. \$, madaniyat sohasi 4,7 mln. \$ 9 ta, yoshlar siyosati va sport sohasida 1,6 mln. \$ 3 ta, huquqni muhofaza qilish sohasida 1,0 mln. \$ 1 ta, suv xo'jaligi sohasida 0,4 mln. \$ 6 tani tashkil etadi Agrosanoatda esa qiymati: 0,05 mln. \$ 4 ta, bandlik sohasida qiymati: 0,1 mln. \$ 1 ta DXSH loyihalari amalga oshirilgan Bu ma'lumotlar davlat-xususiy sheriklik loyihalarining taqsimlanishi va turli sohalardagi investitsiyalarni ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni ijrosiga asosan energetika, transport, sog'liqni saqlash, ta'lim, ekologiya, kommunal xizmatlar, suv xo'jaligi va boshqa sohalarga qiymati qariyb 14 milliard dollardan iborat bo'lgan 154 ta davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish rejalashtirilayotgan

Oxirgi yillarda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Buning natijasida qo'shimcha ish o'rinlari yaratilib aholining turmush darajasi yaxshilanmoqda. Tadbirkorlikning oqilona yo'lga qo'yilishi hududning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishiga turtki bo'ladi. Shu boisdan tadbirkorlikning huquqiy asoslarini yaratib berish davr talabi bo'lib qolmoqda.

Shundan kelib chiqib, davlat xususiy sherikchilik asosida tadbirkorlik subyektlari faoliyatini kengaytirish katta ahamiyat kasb etadi. Shu o'rinda hukumatimiz tomonidan qabul qilinayotgan qaror va farmoyishlar Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 26-aprelda qabul qilingan 2019-yil 3-mayda "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risi"dagi qonun ma'qullangan, O'zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 26-apreldagi 259-sonli "Davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish tartibini takomillashtirish to'g'risi"dagi qarori, O'zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining "Davlat xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirishni jadallashtirish va ularni moliyalashtirish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risi"dagi qarori ayni muddaodir. Hozirgi davlat-xususiy sherikchilik qonunlari, yangi loyihalar dunyoning 130 dan ziyod davlatida amalga oshib kelmoqda. O'zbekiston, to'g'risini aytish kerak, bu masalada ozroq kech qoldi. Shunga qaramay, ishlar tez jadallashmoqda. Ayrim mamlakatlarda qonun yo'q, ayrim mamlakatlarda agentlik yo'q. Bizda agentlik

tashkil qilingandan 6 oy o'tib, qonun tashkil etildi. Mana endi biz ham qonunchilik shakllangan davlatlarga juda ham yaqin keldik. Prezidentimiz tomonidan 2019 yil 29 aprelda qabul qilingan 4300-sonli qarorda 15ta yirik loyihalar qabul qilindi. 2 milliard dollardan oshiq bo'lgan bu loyihalar jumlasiga, aeroportlar, yo'llar, suv ta'minoti, elektr energiyasi ta'minoti sohalarida bo'ladi. Bu bitimning o'ziga xos alomatlari shundan iboratki, loyihaning xatari, moliyaviy manbalar ham xususiy sektor zimmasida bo'ladi. Bu moliyaviy manbani olib kirishdan nima manfaatdor degan savol tug'ilishi mumkin. Avvalo bu davlatning talabi bor joylarga kiritiladi. Aholi infratuzilmalarini oshirishga qaratilgan sohalar aeroportlar, yo'llar, tibbiyot sohasi bo'lishi mumkin. Bu loyihalar 3 yildan 49 yilgacha bo'ladi. Bu shuni anglatadiki, loyiha murakkabdir. Chunki, vaqtlar o'tib ko'p narsalar, masalan narxlar, iste'molchilar, mamlakat demografiyasi o'zgarishi mumkin. Shuning uchun, buni puxta tayyorlash lozim. Loyihani tayyorlashda g'oyadan boshlab shartnomani imzolashga 18 oygacha vaqt talab etiladi. Bunga zamonaviy menejment tizimini joriy qilish ham mumkin. O'zbekiston bozor iqtisodiyotiga o'tganiga salkam 30 yil bo'lmoqda. Nega O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi (Davlat sherigi) tomonidan tadbirkorlik subyektlari (Xususiy sheriklar) bilan maktabgacha ta'lim sohasida davlat-xususiy sherikchilik to'g'risida bitimlar imzolanib kelinmoqda. Maktabgacha ta'lim vazirligi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.04.2018-yildagi "Maktabgacha ta'lim tizimini yana-da rag'batlantirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3651-son qarorida va davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimlarning tegishli bandida ko'rsatilgan majburiyatlarini bajarib, xususiy sheriklarga yer uchastkasi yoki (va) bino ajratilishida va uni ta'mirlash hamda rekonstruksiya qilish uchun imtiyozli kredit mablag'lari berilishida ko'maklashib kelmoqda. Maktabgacha ta'limi sohasida davlat va biznes o'rtasidagi sherikchilik uchun shart-sharoitlar yaratish, DXSh loyihalarini amalga oshirish uchun ularning potensialini ishlab chiqish va birlashtirish hamda mamlakat iqtisodiyotiga xususiy investitsiyalar hajmini oshirish maqsadida markaz tomonidan Davlat xususiy sheriklik veb-portali yaratildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. <http://uza.uz/oz/politics/>, 28.12.2018 yil
2. O‘zbekiston Respublikasining Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 26-aprelda qabul qilingan 2019-yil 3-mayda “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risi”dagi qonun. <https://lex.uz/docs/-4329270>
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni;
3. Djumaniyozov Ulug‘bek Ilxamovich DXSH asosida Korporativ boshqaruvni rivojlantirish ayrim nazariy-uslubiy masalalari. Iqtisodiyot va innovatsion-texnologiyalar ilmiy-elektron jurnali № 3 (2017) May-iyun
4. Белиская А.Б Предпринимательское право 2009 С 21-27
6. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Davlatxususiy sheriklikni rivojlantirish agentligi sayti. <https://www.pppda.uz/5684>
7. Bortshevskiy, G. A. Gosudarstvenno-chastnoe partnerstvo : Uchebnik i praktikum dlya vuzov / g. A. Bortshevskiy. -2-e izd., ISPR. i dop. — Moskva : Izdatelstvo Yurayt, 2019. -412 s. -(Visshee obrazovanie). — ISBN 978-5-534-06541- 1. -Tekst : elektronniy // Obrazovatel'naya platforma Yurayt [sayt]. - URL: <https://urait.ru/book/gosudarstvenno-chastnoe-partnerstvo-433239>
8. www.gov.uz - O‘zbekiston Respublikasi Hukumat portali